

DOSTONLARDA AGNONIMLARDAN FOYDALANISH

<https://doi.org/10.70728/phil.v05.i01.007>

Gulxumor Taxirovna Djamalxodjayeva
O‘zDSMI

Annotatsiya: Mazkur maqolada agnonimlarning Muhammad Yusuf dostonlarida tutgan o‘rni, ularning talqini va qo‘llanilishi bayon qilingan. Har bir agnonimlarning tahlili aks ettirilgan. Tadqiqotda onomastikaning ushbu periferik toifalari badiiy matn tuzilishida qanday funksiyalar bajarishi, intertekstual aloqalarni yaratishda qanday rol o‘ynashi hamda tarixiy xotirani saqlash mexanizmlarida qanday ishlatilishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslanib berilgan.

Kalit so‘zlar: agnonim, lingvosentrik, antroposentrik, dzot, dot

USE OF AGNONYMS IN EPICS

Gulxumor Takhirovna Djamalkhodjayeva
UzSIAC

Abstract: This article describes the role of agnonyms in Muhammad Yusuf’s epics, their interpretation, and application. Analysis of each agnonym is reflected. The study scientifically and theoretically substantiated what functions these peripheral categories of onomastics perform in the structure of the literary text, what role they play in creating intertextual connections, and how they are used in the mechanisms of preserving historical memory.

Keywords: agnonym, linguocentric, anthropocentric, dot, dot

Agnonimlarning paydo bo‘lishi so‘zlarning iste‘mol doirasi va leksik-semantik paradigmalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Agnonimik birliklar ko‘pchilik uchun tushunarsiz bo‘lgan so‘zlardir. Qolgan “ozchilik” tushungani yoki o‘z nutqida bemalol qo‘llay olgani bilan “ko‘pchilik” uchun bu holat o‘zgarmas bo‘lib qolaveradi. Ayrim agnonimlarning qo‘llanish doirasi kengayishi mumkin, lekin “tushunarsizlik” xususiyati saqlanib qolaveradi.[1.203]

Bu atama V.V.Morkovin va A.V.Morkovkina tomonidan kiritilgan bo‘lib, agnonim termini (yunoncha: inkor, bilish, nom) “bilinmagan, tushunarsiz, noma‘lum” nom degan ma‘nolarni anglatadi.[2.106]

O‘zbek tilshunosligida agnonimlar haqida M.Yo‘ldoshev quyidagicha izohlaydi: “agnonimlarni so‘zning leksik-semantik mohiyatiga daxldor obyektiv hodisa sifatida

emas, balki soʻzni idrok etish bilan bogʻliq subyektiv hodisa sifatida baholash toʻgʻriroq boʻladi. Bu hodisani tildagi omonim, paronim, antonim, sinonim kabi soʻz guruhlar qatorida emas, balki tildan foydalanuvchining lisoniy-idrok layoqati bilan bogʻliq hodisa sifatida oʻrganish mumkin".[1.199-200]

Muhammad Yusuf dostonlarida ham agnonimlar maʼlum bir poetik vazifani bajarib, kitobxon eʼtiborini tortadi, fikrlashga undaydi. "Agnonimlar lingvosentrik emas, balki antroposentrik hodisa hisoblanadi,"[3.67] degan fikrni inobatga olsak, bu hodisani tildan foydalanuvchilarning lisoniy layoqati bilan bogʻlash mumkin. Yaʼni, agnonimlar til egalarining bilim va tajribasi bilan bogʻliq holda shakllanadi.

Agnonimlarning paydo boʻlishida ikki xil usul, yaʼni vaqtinchalik hamda ijtimoiy usul mavjud. Ayrim soʻzlar maʼlum muddat oraligʻida oz qoʻllanilganligi uchun tushunarsizdir. Bu yangi soʻzlar (tashkilotchi, lizing) boʻlishi mumkin, ular keyinchalik hammaga maʼlum boʻlishi mumkin. Vaqtinchalik eskirgan soʻzlar ham shu guruhga kiradi. Agnonim soʻzlarning paydo boʻlishining ikkinchi sharti - bu shaxsning oʻsib-ulgʻayishi va taʼlim-tarbiya oladigan ijtimoiy muhitdir.[4.4-11] Shu sababli, eskirgan soʻzlar, turli kasb-hunarga oid atamalar va terminlar kabi soʻzlarni ham agnonimlar ichida birlashtirish mumkin. Xususan, agnonimlar badiiy adabiyotda alohida estetik vazifa bajaradi.

V.V.Morkovin va A.V.Morkovkina tomonidan ishlab chiqilgan tipologiyasiga asosan agnonimik birliklarni semantik asosda tasniflashni oʻrinli deb topdik. Shu bois, Muhammad Yusuf dostonlaridagi agnonimlarni yuzaga kelishi mumkin boʻlgan semantik toʻsiqlarni minimalashtirish maqsadida agnonimlarning kontekst va sematikasiga qarab tahlil qilib, guruhlarga ajratdik:

1) joy va makon nomlari; 2) qurol nomlari; 3) faoliyat turi boʻyicha nomlar; 4) kiyim-kechak nomlari; 5) jonivor va hayvon nomlari;

Joy va makon nomlari. Muhammad Yusuf oʻz dostonlarida agnonimlarni shunday mahorat bilan qoʻllaydi. Ayniqsa, "Temirlar nidosi" dostonining gʻoyasi bevosita Ikkinchi jahon urushi bilan bogʻliq jarayonlar tasvirlanadi. adib asarda urush bilan bogʻliq agnonimlarni mahorat bilan qoʻllaydi, xuddi frontda oʻzi xizmat qilgandek:

Dzotlar ham,

Dotlar ham,

Kema,

Samolyotlar ham,

Besh kolxozning

Yolgʻizi -

Traktor ham men edim!.. [5.198-199]

Berilgan matndan anglashiladiki, *dzot* va *dot* agnonimlari oʻsha jangda foydalanilgan qisqartma soʻz. Tabiiyki, buning maʼnosini oʻquvchi birinchi marta

asarni mutolaa qilganda anglashi dargumon. Ushbu qisqartmaning ma'nosi aslida *Dzot* (дерево-земляная огневая точка) dala, o't inshootidir, u nafaqat parchalar va o'qlardan, balki dushmanning minalari va snaryadlaridan ham himoya qiladi.[6.] *Dzot* agnonimi nafaqat "Temirlar nidosi" dostonida, balki "Ey, Dil..." dostonida ham adib mohirlik bilan foydalanganligini ushbu misralarda ko'ramiz:

Besh yil qirg'in

Kezib, g'olib

Qaytganlarga gapim bor.

Dzotlarga

Ko'krak bosib

Yotganlarga gapim bor.[5.143]

Muhammad Yusuf urushda halok bo'lib, jasadlari *Dzot*larda qolib ketgan odamlar tasvirini berish, urush manzarasini chizish uchun *Dzot* so'zidan o'rinli foydalangan.

Chunonchi, ikkinchi misradagi *dot* agnonimi ham bejizga qo'llanilmagan. Bu qisqartma *Dzot*dan farqli o'laroq boshqa ma'noni bildirsa-da, matnning shakliy butunligini ta'minlashga xizmat qilgan. *Dot* (долговременная огневая точка) - temir-betondan qurilgan va hududni zamonaviy mustahkamlashning asosi va zamonaviy mustahkamlangan hududlarning asosiy elementi bo'lgan inshoot.[7] "*Dzot - dot - samolyot*" so'zlari matn ichida ohangdoshligi sababli qo'llangan, ya'ni fonopoetik vazifa bajarmoqda. Bundan tashqari, "dzot" va "dot" ikkisi ham hududni mustahkamlovchi inshoot bo'lib, mustahkamligi jihatidan biri ikkinchisidan ancha ustun bo'lganligi uchun ham shoir tomonidan atayin kontrastni kuchaytirish maqsadida qo'llagan.

Shoir o'zi ishlatgan ma'lum bir so'zni izohlash ehtiyojini sezsa, demak o'sha so'zning tushunarlik darajasi cheklangan bo'ladi. Shuni nazarda tutib, izoh yoki unga taalluqli so'zlarni keltirish orqali agnonimik birliklarni tushunarlik darajasini orttiradi. Quyida yana Ikkinchi jahon urushiga oid agnonimni ayni ushbu dostonida kuzatamiz hamda tahlilga tortamiz:

Ey, Maskov soldatlari,

Ey, Brest soldatlari,

Temirni ham yig'latgan

Insonlarning mardlari!

Kitobxonda bu dostonni mutolaa qilish davrida "nega aynan Brest?" yoki "Brest soldatlari kimlar?" degan savollar tug'ilishi shubhasiz. Anglashiladiki, adib urush davrdagi har bir holatni, voqelikni tasvirlamasdan qolmagan. Ushbu so'z birikmasi, ya'ni agnonim bilan ijodkor butun boshli tarixiy voqelikni shunday tasvirlaydiki, o'quvchi aynan agnonim qanday ma'no kasb etishini anglashi bilan urushning ilk kunlari ko'z o'ngida gavdalanadi. Brest qal'asining himoya qilish Ulug' Vatan urushining dastlabki davridagi (1941-1945) birinchi va eng dramatik epizodlardan biri.

1941-yil 22-iyun kuni dushman bombardimoniga uchradi, unda o'sha vaqtda yetti mingga yaqin sovet askarlari va komandirlarining oila a'zolari bo'lgan. Nemis qo'mondonligi bir necha soat ichida qal'ani egallab olishni kutgan edi, ammo Moskvaga hujum qilayotgan vermaxtning 45-diviziyasi bir hafta davomida Brestda qolib ketadi va Brest himoyachilari bir oy davomida katta jasorat ko'rsatib, ularga qarshi chiqib, qirib tashlaydilar. Shundan buyon, Brest qal'asi sovet askarlarining jasorati, qahramonona chidamliligi va jasoratining timsoliga aylandi.[8] Darhaqiqat, adib agnonimlarni sinonim sifatida qo'llagani misollarda yaqqol sezilib turibdi. Ushbu agnonimlardan anglashiladiki, shoir Ulug' Vatan urushi tarixini mukammal darajada o'rgangan hamda undan juda qattiq ta'sirlanganligi asarda namoyon bo'ladi.

Qurol nomlari. "Temirlar nidosi" dostoni bu o'z nomi bilan temirlar nomidan inson ustidan qilingan arznoma sifatida yozilgan asar bo'lib, adib asosan bu dostonida turli qurollar nomini tilga oladi:

Men ajalman,

Qironman,

Atomman,

Neytronman,

Olamni suv bosmasin,

Ko'zimdan yosh tirqirab...[5.203]

Keltirilgan *neytron* agnonimi yadro qurollarining bir turi bo'lib, bunda neytron nurlanishi ko'rinishida ajralib chiqadigan portlash energiyasi kuchaytirilgan bo'ladi. Bunday neytron qurollari, boshqa turdagi yadroviy qurollar singari ommaviy qirg'in qurollari hisoblanadi.[9] Anglashiladiki, ijodkor *ajal, qiron, atom, neytron* leksemalarini ma'nodosh sifatida qo'llab, o'zining badiiy-uslubiy maqsadiga erisha olgan.

Keyingi misolda ham qurol nomi bilan bog'liq agnonimni kuzatamiz: *Uchib ketayotgan snaryad ham g'ingshib yig'layotgandek. Snaryad* agnonimi artilleriya qurollaridan o'q otish uchun o'q-dorilar turli silindrsimon korpus va uchli bosh qismi, shuningdek jangovar zaryadlangan samolyot.[10] Satrda *snaryad* agnonimi metafora sifatida qo'llanilib, lingvopoetik xususiyat kasb etadi.

Kiyim-kechak nomlari. Adib aynan kiyim-kechak nomlariga oid bo'lgan agnonimlarni ham uddaburonlik bilan qo'llaganligini ko'ramiz:

Egniga eski bir to'n kiyib olgan,

(Shineldir balki u, kimdandir qolgan.)[5]

"Qora quyosh" dostonidagi ushbu parchadagi *shinel* agnonimi eskirgan so'z hisoblanib, kitobxon uchun "tushunarsiz" so'z ekanligi yaqqol ko'rinadi. "O'zbek tili izohli lug'ati"da *shinel* agnonimi (fransuzchada chenille - erkaklarning tonggi kiyimi, kostyumi) maxsus matodan tikiladigan, maxsus bichimdagi palto deya izoh berilgan.[11.575] Adib parchaning birinchi misrasidagi "*Egniga eski bir to'n kiyib*

olgan” jumlasini *shinel* agnonimini qo‘llashdan oldin keltirib o‘tadi. Bu bilan kitobxonga tushunarsiz bo‘lgan so‘z kiyim ekanligiga ishora qiladi.

Jonivor va hayvon nomlari. Muhammad Yusufning “Ko‘hna quduq” dostoni Buxoro va uning tarixiy-real voqealari bilan gavdalangan. Shoir bu dostonni yaratar ekan, uning butun shart-sharoiti, tabiati, tarixda bo‘lgan achchiq haqiqatlarni bayon qiladi. Shu jumladan, Buxoroning tabiati, unda hayot kechiradigan hayvonlari ham e‘tibordan chetda qolmaganligi tahsinga loyiq. Kitobxon ushbu dostonni o‘qir ekan, unda keltirilgan Xonguli degan nomga duch keladi. Bir qarashda bu nomni tushunib bo‘lmaydi. Shuning uchun bu nomni agnonimlar deya, aynan quyidagi misralarda keltirib o‘tamiz: “*Buxoroda bir paytlar ohular bo‘lgan - Xonguli degan. Xoldor ohular...*” [5.188]

Xongul (Buxoro bug‘usi) - O‘rta Osiyo hududida yashovchi bug‘ular oilasi juft tuyoqlilar turkumiga mansub sutemizuvchi hayvon.[12] Anglashiladiki, ushbu bug‘u aynan Buxoro bug‘usi ham deb nomlanadi. Demak, *Xonguli* nomi bejizga adib tomonidan qo‘llanilmaganligi, asar mazmun-mohiyatini bevosita ochishda qo‘l kelgan. Ushbu agnonimni qo‘llash orqali poetik jihatdan kuchli aktuallashuv hosil bo‘lgan. Ijodkor agnonimlardan foydalanar ekan, o‘zining individual mahoratini namoyish eta olgan.

Umuman olganda, agnonimlar badiiy asarning oson va tez qabul qilinishiga xalal beruvchi holat, biroq badiiy asarning lisoniy boyligini orttirishga va qatlamdorligini ta‘minlashga xizmat qilishi nuqtayi nazaridan muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. - Тошкент: O‘zbekiston, 2019.
2. Морковкин, В.В., Морковкина А.В. Русские агнонимы (слова, которые мы не знаем). - М.: АО Астра семь, 1997.
3. Йўлдошев М. Бадий матнинг лисоний таҳлили. - Тошкент, 2008.
4. Дондокова, А. Б. Агнонимы в произведениях А. П. Чехова и Л. Н. Андреева, русских писателей конца XIX - начала XX века / А. Б. Дондокова, Ц. Л. Дондокова. - Текст: непосредственный // Юный ученый. - 2022. - № 1 (53).
5. Муҳаммад Юсуф. Халқ бўл элим // Ўзбекистон. - Тошкент, 2018. - 137-204-б.
6. <http://kfss.ru/content/fortifikacionnyy-slovar>
7. <http://kfss.ru/content/fortifikacionnyy-slovar>
8. <https://www.may9.ru/victory/heroic-cities/brestskaya-krepost>
9. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Neytron_quroli
10. <https://ru.m.wikipedia.org/wiki>
11. Ўзбек тилининг изохли луғати. - Тошкент, 2007. 5-жилд.

12. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Xongul>

13. Djamalxodjayeva G. T. MUHAMMAD YUSUF IJODIDAGI
FOLKLORIZMLAR LINGVOPOETIKASINING O'RGANILISH MASALALARI
//Oriental Art and Culture. - 2023. - T. 4. - №. 1. - C. 398-405.